

**Do`stlik tuman axborot-kutubxona markazi
Axborot bibliografiya xizmati.**



**Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan
“Qadriyatlar qadr topgan yurt”!
nomli kitobxonlarga eslatma.**

Do`stlik 2023

Navro‘z tarixi



Tarixiy manbalarda keltirilishicha va olimlarimiz fikriga ko‘ra, Navro‘zning shakllanish davri — eng qadimgi zamonlardan „zardushtiylik“ning paydo bo‘lishigacha davom etgan asrlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbek xalqining allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy „Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar“ kitobida Quyosh yili hisobida yilning birinchi oyi deb sanalgan Farvardin oyi to‘g‘risida so‘zlab: "Bu oyning birinchi kuni Navro‘zdir, — deydi. — Navro‘z yilning birinchi kuni bo‘lib, uning forscha nomi ham shu ma‘noni anglatarkan. Navro‘z eronliklar „zij“lari bo‘yicha o‘tmish zamonlarda, ular yillarini kabisali qilgan vaqtlarida Quyoshning Saraton burjiga kirish paytiga to‘g‘ri kelar edi. So‘ngra u orqaga surilgach, bahorga keladigan bo‘ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya‘ni bahor yomg‘irining birinchi tomchisi tushishidan, gullar ochilgan, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, o‘simlik unib chiqa boshlashdan takomillashguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro‘z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan" deya izohlaydi.

Qadim-qadimdan Navro‘z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo‘lib kelgan. O‘sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to‘xtalgan, gina-qudratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o‘tishgan.

Bahor va yangi ayyom har bir yurakdan muhim joy olgan quvonchli damlarda ko‘pchilikning „Navro‘z qaerda va qachon paydo bo‘lgan ekan?“ — degan savoliga „Saodat“ jurnalida e‘lon qilingan „Onaqutining saxovati“ maqolasida bunga asosli javob berilgan. Unda jumladan: "Dunyoga ilk alifboni bergan buyuk allomalarning vatani bo‘lgan, dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda, hatto eramizdan avvalgi minginchi yillarda Xvayrazam deb atalgan. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va etnografik izlanishlar Navro‘z bayrami ilk bor xuddi shu zaminda Niso (ya‘ni, ayol shahri poytaxti bo‘lmish Parfiyona) grek va Ovrupa faylasuflari asarlarida Parfiyada nishonlanganini ashyoviy topilmalar tasdiqladi. Bunga Burgut qal‘a, Jomboq qal‘a va Niso qo‘rg‘onlarida bunyod qilingan va shu kunlarga saqlanib

qolgan „olov uy“lari yaqqol misol bo‘la oladi. Burgut qal’a markazida moviy gumbazli maqbara bo‘lgan. Maqbara mehrobida Onaqutining ko‘tarilgan qo‘lida Zumrad tosh bo‘lgan. Bahorgi teng kunlikda-shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo‘yicha 22-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo‘lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o‘txonasiga o‘t yoqqan", deyilgan.

Firdavsiyniig „Shohnoma“sida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to‘qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog‘ bunyod qiladi. Nihoyat, „ishlari gurkirab berganda meva“ bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra xuddi shu kuni Navro‘z nishonlangan.

Alisher Navoiy „Tarixi mulki ajam“ („Ajam shohlari tarixi“) asarida Jamshidning buyuk kashfiyotlari so‘ngida ulug‘ Navro‘z ixtiro qilinganligini bayon qiladi. Navoiy yozishicha: "Jamshid „Chihil minor“ nomli odamzod ko‘rmagan va aql bovar qilmaydigan baland bino qurib... „bu imorat tugandi, olam salomin va ashrov va ahbarin yig‘ib, anda azim jashn qildi. Ul vaqtkim, quyosh nuqta e‘tiqodli rabiyg‘a taqvil qilib erdi ul binoda taxt ustiga o‘ltirib, adolat sayt va sadosin olamg‘a muntashir qildi va ul kunining otin navro‘z qo‘ydi“.

Darhaqiqat, Navro‘zning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq ko‘rsatish qiyin bo‘lsa-da, shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki Navro‘zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, ya‘ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu esa (har qanday jamiyatda) yil boshi qachon kelishidan qat‘i nazar navro‘zni uyg‘onish bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo‘lgan. Bundan tashqari, Navro‘zning chuqur ildizlariga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda — ibtidoiy odamlarning dehkanchilikka o‘tganidan so‘ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o‘tkazilgan bahor bayramlariga borib taqaladi.

Bugun mana yana elimizga Navro‘zi olam uz sepini yoymokda. Ma‘lumki, xalqimiz istak-xohishlarini e‘tiborga olgan holda Yurtboshimiz tomonidan, 21-martni dam olish kuni deb e‘lon qilingan.

Navro‘z barcha viloyatlarning shaharu qishloqlarida, korxonalarida, ilmfan dargohlarida o‘ziga xos tarzda ko‘tarinki kayfiyat va tashabbus ila o‘tkaziladi. Bayram kuni turli xil musobaqalar, qariyalar bilan muloqotlar bo‘ladi. Bahor ko‘katlaridan tayyorlangan nozu ne‘matlar tortiq etiladi. Barcha viloyatlarning eng iste‘dodli va yosh xonandalari xizmatda bo‘ladilar.

Elimizning murodu maqsadini kuylagan, yurtimizning oromu osoyishini o‘ylagan, butun borliq muruvvat aylagan, bag‘riga benihoya ezgu muhabbat joylagan, yomonliklar yo‘lin boylagan, yaxshilikdan doston so‘ylagan, barchani birday siylagan bayramdir bu.

"Bu bayramni bahori barobar kelguvchi, bir xil yig'lab, bir xilda kulguvchi, muchal yilini bilguvchi, urfini hurmat qilguvchi talay elu elatlar, mazhablaru millatlar yangi yil deb nishonlaydilar. „To‘qson“ning baxayr o‘tganini, ya’ni „ko‘k“ka og‘izlari etganini aytib, bir-biri bilan omon-omonlashadi".



Hozir 21-martdan to 3-maygacha barcha kunlarni Navro‘z oyi deb bayram qilinadi. Bu kunlarda turli urf-odatlarini eslab, atrof-muhit tozalanadi, ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari avj oladi, har xil mevali va mevasiz ixota kuchatlari utkaziladi, gullar ekiladi, turli ko‘katlarni terib, vitaminli taomlar, bug‘doy undirib, sumalaklar pishiriladi. Qarindosh-urug‘larni yod olib ular holidan xabar olishga boriladi, ota-bobolarni, o‘tgan avlodlarni xotirlab, qabrlarini ziyorat qiladilar. Bemorlarni Navro‘z taomlari bilan yo‘qlab, ko‘ngil ko‘taradilar va shundan keyingi kunlardan dala, ishlariga kirishib ketadilar.

Musulmon davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari Miloddan avvalgi III asrdayoq Navro‘z bayramini Yangi yil tariqasida keng nishonlaganlar.

Yangi yil — yilning birinchi kuni bo‘lib, dunyodagi ko‘pgina xalqlarning eng muhim bayramidir. Yangi yilni kutib olish va nishonlash turli davrlarga to‘g‘ri kelgan. Masalan, bizda Navro‘z 21-mart kuni. Ovrupaliklar Yangi yilni 1-yanvarda, mo‘g‘ul va xitoyliklar Yangi yil-sagalganni fevralda nishonlar ekanlar.

Mutaxassislarning asoslangan fikrlariga ko‘ra, Quyosh ayni shu kuni hayotbaxsh nurlarini tik, ya’ni 90 daraja burchak hosil qilib, sayyoramizning qoq beliga — ekvatorga yo‘naltiradi. Shu daqiqalarda bahorgi kecha-kunduz tenglashadi va 22-martdan boshlab Quyoshning tik yo‘nalgan nuri shimoliy tropik chizig‘i tomon harakatlanadi. Bu Navro‘zning ilk va qutlug‘ qadami bo‘lib, tabiatning jonlanishi bilan kishilarning xo‘jalik faoliyati o‘rtasida uyg‘unlik namoyon bo‘ladi. Jumladan, bobo dehqon ona erga mehr ishlov berishga kirishadi; tabiat o‘t-o‘lanlar, qir-adirlarni gilam singari yashil libosga bo‘yaydi...

Navro‘z musulmon xalqlarining taqvimida mustahkam o‘rin olgan eng sara bayramlaridan biridir. U inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni anglatadigan noyob va ijtimoiy hamda tabiiy hodisadir. Lekin ayni paytda biz kutib olayotgan, yangi yilning birinchi kuni 1-yanvar to‘g‘risida bunday fikrni aytish mumkin emas, chunki bu marosim taqvimda turg‘unsiz bo‘lgan sun‘iy, ya’ni kishilarning xohish-irodasiga bog‘liq holda belgilangan sanadir.

Qadim-qadimdan xalqimiz Navro‘z arafasidan boshlaboq, rizq-ro‘zimiz manbai ona erga alohida mehr bilan ishlov berib, urug‘ qadagan, mevali va mevasiz daraxtlar o‘tkazish marosimlari tashkil etilgan, xilma-xil taniq taomlar, pishiriqlar tayyorlangan, turli musobaqalar, o‘yin-kulgular, sayillar va hokazolar

bo‘lib o‘tgan. Darhaqiqat, o‘z xalqiga qaytarilgan yangi yil — Navro‘z barchaga olam-olam quvonch keltirib, ma‘naviy oziq beradigan taqvimdagi muhrlangan qadimiy an‘anamizdir.

Navro‘z (forscha **نوروز** — „*yangi kun*“) — bahor bayrami, hamda fors va turkiy xalqlarida yangi yilning birinchi kuni. „Navro‘z“ so‘zi forschadan tarjima qilinganda, „yangi kun“ ma‘nosini beradi. Eron, shuningdek, Markaziy Osiyo va Kavkazda navro‘z 21-mart kuni, Qozog‘istonda esa, 22-martda nishonlanadi.

Navro‘z Shimoliy yarimsharda bahorning boshlanishi sifatida, kecha-kunduz tenglashgan kunda (martning 20, 21 va yoki 22-da) boshlanadi. Ba‘zi xalqlar bahor faslining kelishini tabiatning uyg‘onishi bilan bog‘laydilar, shu munosabat bilan bayramlar o‘tkazishadi, uni yangi yilning boshlanishidek bayram qiladilar. Qadim zamonlardan boshlab Ozarbayjon, O‘zbekiston, Eron, Afg‘oniston, Tojikiston va yana ko‘plab sharqiy o‘lkalarda bahorning — yangi yilning kelishini bayramlar bilan qarshi olishadi. Martning 21-sanasi Eron va Afg‘onistonda rasmiy taqvimning dastlabki birinchi kuni hisoblanadi.

2009-yil



30-

sentyabda Navro‘z UNESCO tarafidan nomoddiy madaniy meros ro‘yxatiga kiritilgan, 2010-yil 23-fevralda esa BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-mart „Xalqaro Navro‘z Kuni“ deb e‘lon qilindi. Hali ham bu bayram xalqlar o‘rtasida keng ko‘lamda davom etib kelmoqda.

Bayramning umumiy tasnifi

Navro‘z qadimiyligi, keng geografik qamrovi va uni nishonlash vaqtidagi turli davrlari sababli, nomoddiy madaniy merosning xilma-xil hususiyatlarini o‘z ichiga oladi. U „Navro‘zi Jamshid“ini anglatgan Eronning afsonaviy shohi Jamshid va shu kabi afsonalarga asoslangan ko‘pgina madaniy shakl va tasvirlardan tashkil topgan.



Shunga o‘xshash afsona hind mifologiyasida ham mavjuddir, bundan tashqari „Bo‘zqurt“ nomli turk afsonasida, „Ammo Navro‘z“ Eron afsonasida, Afg‘oniston va O‘rta



Osiyo mamlakatlari afsonalarida Nanex Novrouz Amoo Novrouzni kutadi, lekin yangi yil kirib kelganida uxlab qoladi. Amoo Novrouz u uxlab ëtganida kelib ketadi. Bu voqea har yili takrorlanaveradi. Bu afsonalar eskirgandek tuyulsa ham, ular bugungi kunda madaniyatimizda uchrab turadi. Ertaklar, epik she'rlar, „Navro‘z she‘rlari“ deb nomlanadigan mumtoz she‘rlar bilan birga, bugungi kunda Navro‘z marosimidan oldin va keyin kitob, jurnal, internetda chop etilgan shoirlar va radio, televideniya yozilgan yangraydigan musiqa: qadimgi va mumtoz Eron musiqasida maxsus kuylar va qo‘shiqlar mavjud bo‘lib, ular „Naz-e Novrouz“, „Yaad-e Novrouz“, „Novrouz-e Xordak“, „Novrouz-e Xara“ i „Novrouz-e Saba“ deb nomlanadi. Usmonli turk imperiyasida ham shunga o‘xshash kuy va musiqalar yangi ragan. Boshqa Navro‘zlarda bu marosimga aloqador ko‘pgina kuy va musiqalar mavjud. „Navro‘z“, „Muborakbod“, „Shohmoylar“, „Sumalak“, „Boychechak“, „Binafsha“ kabi fol‘klor ashulalari O‘zbekistonda bugungi kunda ham mashhur. Hozirda mahalliy, milliy va hatto millatlararo konsertlarda kuylanadigan Navro‘z kuy-qo‘shiqlari mavjud. Bundan tashqari, „Mulla Mamajon“ afg‘on qo‘shig‘i juda mashhur bo‘lib, Mozori Sharifda, Eron, Tojikistonda ham kuylanadi.

Barcha Navro‘zlarda mahalliy va an‘anaviy raqslar mavjud bo‘lib, ular etnik guruhlar tomonidan ijro etiladi, Ozarbayjon va o‘zbek raqslari kerakli maromda ijro etiladi va madaniy hamda lingvistik ko‘rinish — maxsus folklor ko‘rinishlarida uyg‘unlashgan. Bular orasida „Xan Bazi“ va „Kusex Galin“ Eronda, „Kusa Kusa Xani“ Ozarbayjon va Turkiyada hamda „Bahor Xonim“, „Navro‘z bobo“, „Dehqon bobo“, „Nasriddin“ O‘zbekistonda, „Aspak bozi“ (masxaraboz), „Laklak bozi“ Qirg‘izistonda, uloq, otchopar, ko‘pkari, kurash, qo‘chqorlar, xo‘rozlar jangi va boshqalar. Tajriba, bilim va hunar, shuningdek, uy jihozlarini yangilash, bolalar uchun o‘yinchoqlar yasash, qimmatli tosh va metallardan yasalgan zargarlik buyumlari, ayniqsa yosh kelinlar uchun bezaklar, zeb-ziynat mahsulotlari bayram nishonlanishning turli bosqichlarida qo‘llaniladi. Umuman olganda, bayram marosimlarida ushbu odatlar umumiy qiymatga va boy madaniy xilma-xillik ko‘rinishidagi o‘ziga xoslikka ega.

Sanalarni belgilash asosan qadimiy astronomik ta‘limot asosida hisoblanadi. O‘rta asrlarda yilnoma asosan Abu Rayhon Beruniy, Mahmud



Koshg'ariy va Umar Xayyom kabi mashhur olimlar tomonidan tasdiqlangan va to'g'rilangan.

Har bir oila va jamiyatda nishonlanadigan ko'pgina marosim, an'ana va madaniy hodisalar mavjud. Bayramning eng muhim vazifalaridan biri bu ommaviy yig'inlar bo'lib, u yerda madaniy almashinuv va tadbirlar marosimlarga qo'shib o'tkaziladi. Suv va olov bilan bog'liq maxsus ommaviy marosimlar bunga misol bo'la oladi.

Masalan, Eronda aholi „Charshanbeh Suri“ yoki „Charshanbeh-e Otash“ deb nomlanadigan yilning so'nggi chorshanba kuni, buloq yoki olov ustidan sakrashadi. Ozarbayjonda ketma-ket keladigan yilning so'nggi to'rt chorshanbasi mashhur bo'lib, ular „Charshanbeh Ob (suv)“, „Charshanbeh Bod (shamol)“, „Charshanbeh Xok (er)“ va „Charshanbeh Otash (olov)“ deb nomlanadi, bu paytda odamlar olov atrofida yurib, an'anaviy qo'shiqlar aytadilar va yoxud olov yoki suv atrofida raqsga tushadilar.

Kurd va zardo'shtlar, Turkiya va O'rta Osiyo mamlakatlari xalqlari orasida Navro'z arafasida olov bilan bog'liq marosimlar mavjud. Masalan, Qirg'iziston Respublikasida odamlar qarzlarni to'laydilar, uylarini yig'ishtiradilar, qo'shnilari bilan urushib qolgan bo'lsa yarashib, ularni kechiradilar. To'kin-sochinlik, hosildorlik va yomg'ir timsoli sifatida barcha idishlarni sut, qatiq, bug'doy va bahorgi suv bilan to'ldiradilar. Qariyalarning aytishlaricha, bu insonlardan turli xil kasalliklar va omadsizliklarni ketkazadi.

Ko'pgina qishloq va qabilalarda yilning so'nggi chorshanbasi va Navro'z arafasida uy bekalari va qizlar uylari yaqindagi chashma, buloq yoki quduqdan suv keltirishadi.

Bayramning birinchi soatlari oila-oila bo'lib keksalarni, qo'shnilarni, yordamga muhtoj oilalarni va nogironlarni yo'qlash bilan boshlanadi. Mehmondorchilik chog'ida odamlar bir-biriga sovg'alar ulashadi, ayniqsa, yosh bolalar va kelin-kuyovlar- ga sovg'a ulashish odat bo'lgan. Bayram o'yin va tomoshalar bilan

davom etadi, Eronda mahalliy kurash, poyga, „Bandbozi“ (dorda yurish), Afg‘oniston va O‘rta Osiyo mamlakatlarida chavandoz buzoq boshini eslatadigan buyumni tutishga harakat qiladigan „Buz kashi“ o‘yini keng tarqalgan va bu o‘yinlar bir necha kun davom etadi. Qirg‘iziston Respublikasida o‘tkaziladigan o‘yinlar haqida alohida to‘xtalish kerak: Ot Charbish (poyga), Qiz Kumay (otda qiz ortidan quvish), Kok Noru yoki Uloq Tortish (echki tutish), Enish (ot ustida kurash), Kurash (an‘anaviy kurash) va Jambu Atuu (otda kumush bo‘lakka o‘q otish) va o‘smirlar va bolalar uchun o‘tkaziladigan maxsus o‘yin „Ak Cholmok“. O‘tganlar haqiga noz-ne‘matlar keltirib, ularning qabrlarida sham qo‘yishadi. Ozarbayjonda Navro‘z nishonlashning ikkinchi kuni erkaklar o‘tganlarning haqiga duo o‘qiydi va bu „Otalar kuni“ deb nomlanadi. Qozog‘istonda bayram arafasida odamlar eshik oldiga ikkita yoqilgan sham olib keladi.

Ikkita asosiy va muqaddas taom mavjud bo‘lib, birinchisi Navro‘zda yoki uning arafasida tushlik, ikkinchisi Navro‘zda peshin taomi. Taom qaynatilgan guruch va sabzavot, tovuq go‘shiti, bug‘doy ugrasi va baliq kabi masalliqlardan iborat bo‘lib, ular odamlar yashayotgan hududga qarab qo‘shiladi.

Qirg‘izistonda bayram tushligidan so‘ng odamlar ko‘chaga saylga chiqib bayramni nishonlaydilar. Kichik shahar va qishloqlarda qurbonlikka keltirilgan buqadan Nooruz Kedji yoki Chon Kedji (sho‘rva) tayyorlash uchun maxsus joylar tanlanadi. Bu qadimiy taom go‘shiti, yog‘, guruch, no‘xot, arpa, bug‘doy, jo‘xori, so‘li uni, tariq, kartoshka va ziravorlardan tayyorlanadi.

Shuni ta’kidlash joizki, Qirg‘iziston Respublikasida yarim muqaddas taomlar oilaviy bayram tushliklarida tortilib, jamoaviy marosimlarda tortilmaydi.

Bayramning eng muhim nishonalaridan biri bu dasturxon bo‘lib, unga ramziy buyumlarga mos taomlar qo‘yiladi. Buyumlar tozalik, nur, tinchlik va boylikni anglatadi. „Sofrex“ yoki Eronda „Sofrex-ye haft Sin“ deb nomlanadigan stol, poklik belgisi suv, yorug‘lik belgisi sifatida sham yoki fonus, o‘simliklar belgisi sifatida „Sabzex“ yoki „ko‘katlardan tayyorlangan taom“, Eronda „Samanu“, Qirg‘izistonda va O‘zbekistonda „Sumalak“, Turkmanistonda „Samani“, Tojikistonda „Somoluk“lardan tuziladi.

Qirg‘iziston Respublikasida Navro‘z bayramini nishonlashning asosiy an‘analaridan biri bu uylarini, odamlarni va mol-mulkini tozalash uchun uylarga qora archa hidini taratish (Alastau) yoki „Adirashman“ (ignabargli daraxt bilan), Eronda esa yovvoyi ruta bilan taratish odat bo‘lgan.

Bayramning asosiy elementlari musiqa, raqs, og‘zaki nutq hamda adabiyot, hunarmandchilik va rassomchilik (asosan miniatyura san‘ati)dan tashkil topadi. Turli xil hunarmandlar o‘z qo‘llari bilan bezaklar, bolalar uchun o‘yinchoqlar yasab berishadi. Bu o‘yinchoqlardagi bezaklar, she‘riyatdagi asosiy mazmun, musiqa va raqslardagi badiiy ma’no, rasmlardagi asosiy mazmun Navro‘z bayramida bahorni kelishi va tabiatning yangilanishini aks ettirgan. Misol uchun, Qirg‘iziston Respublikasida Akayn — ko‘cha san‘atkorlarining chiqishlarida Yangi yilni olqishlash ma’nosi ko‘tarilgan.

Bundan tashqari akaynlr afsonaviy voqealarni ko'rsatib namoyishlar qo'yishgan. Shuningdek, O'zbekstonda ham Navro'zni sharaflash qo'shiqlari folklor san'atkorlar baxshi, shoir va dostonchilar repertuaridan ham joy olgan. Navro'zga bag'ishlangan ayrim epik afsonalar shu kungacha saqlanib qolgan (Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand). An'anaviy musiqaning rivojlanishiga marosim ohangi ham o'ziga xos hissa qo'shgan, bular Buxoroning „Shoshmaqom“, „Xorazm maqomlari“ va „Farg'ona — Toshkent maqomlari“ kabi cholg'u va yakkaxon maqom siklini yaratishga asos bo'lgan^[1].

Tarixi

Tarixiy manbalarda keltirilishicha va olimlarimiz fikriga ko'ra, Navro'zning shakllanish davri — eng qadimgi zamonlardan „zardushtiylik“ning paydo bo'lishigacha davom etgan asrlarni o'z ichiga oladi.

O'zbek xalqining allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy „Qadimiy xalqlardan yodgorliklar“ Quyosh yili yilning deb sanalgan to'g'risida o'ying Navro'zdir, — Navro'z birinchi kuni forscha nomi ma'noni Navro'z „zij“lari o'tmish ular yillarini vaqtlarida



„Qadimiy qolgan kitobida hisobida birinchi oyi Farvardin oyi so'zlab: "Bu birinchi kuni deydi. — yilning bo'lib, uning ham shu anglatarkan. eronliklar bo'yicha zamonlarda, kabisali qilgan Quyoshning

Saraton burjiga kirish paytiga to'g'ri kelar edi. So'ngra u orqaga surilgach, bahorga keladigan bo'ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya'ni bahor yomg'irining birinchi tomchisi tushishidan, gullar ochilgan, daraxtlar gullashidan mevalari yetilguncha, o'simlik unib chiqa boshlashdan takomillashguncha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro'z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan" deya izohlaydi.

Qadim-qadimdan Navro'z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo'lib kelgan. O'sha kunlarda hatto urush-janjallar ham to'xtalgan, gina-qudratlar kechirib yuborilgan. Shohlar el ichidan eng munosib kishilarni taqdirlashgan, ayrim mahbuslarning gunohidan o'tishgan.

Bahor va yangi ayyom har bir yurakdan muhim joy olgan quvonchli damlarda ko‘pchilikning „Navro‘z qarda va qachon paydo bo‘lgan ekan?“ — degan savoliga „Saodat“ jurnalida e‘lon qilingan „Onaquining saxovati“ maqolasida bunga asosli javob berilgan. Unda jumladan: "Dunyoga ilk alifboni bergan buyuk allomalarning vatani bo‘lgan, dunyoviy fanlarga asos solgan Xorazm yurti qadimda, hatto eramizdan avvalgi minginchi yillarda Xvayrazam deb atalgan. Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik va etnografik izlanishlar Navro‘z bayrami ilk bor xuddi shu zaminda Niso (ya’ni, ayol shahri poytaxti bo‘lmish Parfiyona) grek va Ovrupa faylasuflari asarlarida Parfiyada nishonlanganini ashyoviy topilmalar tasdiqladi. Bunga Burgut qal‘a, Jomboq



qal‘a va Niso qo‘rg‘onlarida bunyod qilingan va shu kunlargaacha saqlanib qolgan „olov uy“lari yaqqol misol bo‘la oladi. Burgut qal‘a markazida moviy gumbazli maqbara bo‘lgan. Maqbara mehrobida Onaquining ko‘tarilgan qo‘lida Zumrad tosh bo‘lgan. Bahorgi teng kunlikda-shamsiy hisob bilan hamal oyining birinchi kuni, hozirgi taqvimimiz bo‘yicha 22-martda maqbara gumbazidagi tuynukdan quyosh nuri Onaquti qo‘lidagi Zumrad toshiga tushib, sumalak pishirish uchun tayyor turgan qozonning o‘txonasiga o‘t yoqqan",

deyilgan.

Boshqa afsonalarga qaraganda, Odam Ato Momo Havo bilan uchrashgan kun Navro‘z deb tan olingan emish. Firdavsiyniig „Shohnoma“sida yangi yil bayrami shoh Jamshid nomi bilan bog‘lanadi. Jumladan, Jamshid yurtga yaxshilik qilish maqsadida odamlarga kasb o‘rgatadi, temir eritib qurol yasatadi, ip yigirtirib kiyim to‘qitadi, imoratlar barpo qiladi, tabiblik sirlarini ochadi, kema yasaydi, bog‘ bunyod qiladi. Nihoyat, „ishlari gurkirab berganda meva“ bir kuni taxt yasatib, unda osmonga ko‘tariladi. Ushbu afsonaga ko‘ra xuddi shu kuni Navro‘z nishonlangan.

Darhaqiqat, Navro‘zning qachon va qanday vujudga kelganligini aniq ko‘rsatish qiyin bo‘lsa-da, shuni aytish mumkinki, bu bayram dono kishilar tomonidan kashf qilingan. Chunki Navro‘zning dunyoga kelishi chuqur ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, ya’ni Quyoshning hamal burjiga kirishi, tun va kunning tenglashuvi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu esa (har qanday jamiyatda) yil boshi qachon kelishidan qat’i nazar navro‘zni uyg‘onish bayrami sifatida nishonlash uchun asos bo‘lgan. Bundan tashqari, Navro‘zning chuqur ildizlariga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda — ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o‘tganidan so‘ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o‘tkazilgan bahor bayramlariga borib taqaladi.

Bugun mana yana elimizga Navro‘zi olam uz sepini yoymokda. Ma’lumki, xalqimiz istak-xohishlarini e’tiborga olgan holda Yurtboshimiz tomonidan, 21-martni dam olish kuni deb e’lon qilingan.

Navro‘z barcha viloyatlarning shaharu qishloqlarida, korxonalarida, ilm-fan dargohlarida o‘ziga xos tarzda ko‘tarinki kayfiyat va tashabbus ila o‘tkaziladi.

Bayram kuni turli xil musobaqalar, qariyalar bilan muloqotlar bo‘ladi. Bahor ko‘katlaridan tayyorlangan nozu ne’matlar tortiq etiladi. Barcha viloyatlarning eng iste’dodli va yosh xonandalari xizmatda bo‘ladilar.

Elimizning murodu maqsadini kuylagan, yurtimizning oromu osoyishini o‘ylagan, butun borliq muruvvat aylagan, bag‘riga benihoya ezgu muhabbat joylagan, yomonliklar yo‘lin boylagan, yaxshilikdan doston so‘ylagan, barchani birday siylagan bayramdir bu.

"Bu bayramni bahori barobar kelguvchi, bir xil yig‘lab, bir xilda kulguvchi, muchal yilini bilguvchi, urfini hurmat qilguvchi talay elu elatlar, mazhablaru millatlar yangi yil deb nishonlaydilar. „To‘qson“ning baxayr o‘tganini, ya’ni „ko‘k“ka og‘izlari etganini aytib, bir-biri bilan omon-omonlashadi".

Xavashyaliklarning aytishicha, Sulaymon podshohning uzugi yo‘qolgan kun podshohligi ham qo‘lidan ketgan. Qirq kundan keyin uzugi topilgach, podshohligi ham, ravnaqi ham qaytib kelgan. Podshohlar uning huzuriga to‘planadilar. SHunda eronliklar „Navro‘z omad“, yangi kun keldi" deganlar. Natijada shu kun Navro‘z deb ataladi.



Hozir 21-martdan to 3-maygacha barcha kunlarni Navro‘z oyi deb bayram qilinadi. Bu kunlarda turli urf-odatlarni eslab, atrof-muhit tozalanadi, ko‘kalamzorlashtirish va obodonlashtirish ishlari avj oladi, har xil mevali va mevasiz ixota kuchatlari utkaziladi, gullar ekiladi, turli ko‘katlarni terib, vitaminli taomlar, bug‘doy undirib, sumalaklar pishiriladi. Qarindosh-urug‘larni yod olib ular holidan xabar olishga boriladi, ota-bobolarni, o‘tgan avlodlarni xotirlab, qabrlarini ziyorat qiladilar. Bemorlarni Navro‘z taomlari bilan yo‘qlab, ko‘ngil ko‘taradilar va shundan keyingi kunlardan dala, ishlariga kirishib ketadilar.

Musulmon davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlari Miloddan avvalgi III asrdayoq Navro‘z bayramini Yangi yil tariqasida keng nishonlaganlar.

Yangi yil — yilning birinchi kuni bo‘lib, dunyodagi ko‘pgina xalqlarning eng muhim bayramidir. Yangi yilni kutib olish va nishonlash turli davrlarga to‘g‘ri kelgan. Masalan, bizda Navro‘z 21-mart kuni. Ovrupaliklar Yangi yilni 1-yanvarda, mo‘g‘ul va xitoyliklar Yangi yil-sagalanni fevralda nishonlar ekanlar.

Mutaxassislarning asoslangan fikrlariga ko‘ra, Quyosh ayni shu kuni hayotbaxsh nurlarini tik, ya‘ni 90 daraja burchak hosil qilib, sayyoramizning qoq beliga — ekvatorga yo‘naltiradi. Shu daqiqalarda bahorgi kecha-kunduz tenglashadi va 22-martdan boshlab Quyoshning tik yo‘nalgan nuri shimoliy tropik chizig‘i tomon harakatlanadi. Bu Navro‘zning ilk va qutlug‘ qadami bo‘lib, tabiatning jonlanishi bilan kishilarning xo‘jalik faoliyati o‘rtasida uyg‘unlik namoyon bo‘ladi. Jumladan, bobo dehqon ona erga mehr ishlov berishga kirishadi; tabiat o‘t-o‘lanlar, qir-adirlarni gilam singari yashil libosga bo‘yaydi...

Navro‘z musulmon xalqlarining taqvimida mustahkam o‘rin olgan eng sara bayramlaridan biridir. U inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni anglatadigan noyob va ijtimoiy hamda tabiiy hodisadir. Lekin ayni paytda biz kutib olayotgan, yangi yilning birinchi kuni 1-yanvar to‘g‘risida bunday fikrni aytish mumkin emas, chunki bu marosim taqvimda turg‘unsiz bo‘lgan sun‘iy, ya‘ni kishilarning xohish-irodasiga bog‘liq holda belgilangan sanadir.

Qadim-qadimdan xalqimiz Navro‘z arafasidan boshlaboq, rizq-ro‘zimiz manbai ona erga alohida mehr bilan ishlov berib, urug‘ qadagan, mevali va mevasiz daraxtlar o‘tkazish marosimlari tashkil etilgan, xilma-xil taniq taomlar, pishiriqlar tayyorlangan, turli musobaqalar, o‘yin-kulgular, sayillar va hokazolar bo‘lib o‘tgan. Darhaqiqat, o‘z xalqiga qaytarilgan yangi yil — Navro‘z barchaga olam-olam quvonch keltirib, ma‘naviy oziq beradigan taqvimdagi muhrlangan qadimiy an‘anamizdir.

Yaqin tarix

Navro‘z Sovet davrida O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa qismlarida ochiq nishonlanmagan. Bir necha ming yillik tarixga ega bu bayram O‘zbekistonda ayniqsa 1980-yillarga kelib rasman taqiqlangani haqida ma‘lumotlar bor. Bu davrga kelib, deydi yaqin tarixni sharhlayotgan ayrim

mutaxassislar, O‘zbekistonda milliylik tuyg‘usi kuchaya boshlagan. Mustaqillikdan keyin esa Navro‘z davlat miqyosida keng nishonlanadigan bayramga aylandi. Dastlab madaniy ayyom sifatida ko‘rib, xalq sayli sifatida tantana qilingan Navro‘z bugunga kelib ancha siyosiy-rasmiy tus olgan. Sovet davrida Navro‘zning taqiqlanishi ikki bosqichda kuzatilgan. "Avval 1920-yillarda „xudosizlar jamiyati“ni tuzish davrida, odamlarni dindan voz kechasan, deb majburlash paytida, Navro‘z ham taqiqlangan bayramlar qatoriga kirgan", — deydi tarixchi olim Fayzulla Is‘hoqov. 1985—1986-yillarda esa Navro‘z asosan O‘zbekistonda „xavfli an‘ana“ sifatida ko‘rilgan. Qayta qurish davrida kechgan bu ta‘qiblar milliy uyg‘onish davrini boshdan kechirayotgan o‘zbek ziyolilari o‘rtasida keng muhokama qilingan. Xalq hofizi Dadaxon Hasanning eslashicha, shu yillarda O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov Navro‘zni „Baxt va Bahor“ bayrami deb o‘zgartirish tashabbusi bilan chiqqan. "O‘zbekiston Markaziy qo‘mitasining ideologiya bo‘yicha kotibasi Ra‘no Abdullayeva edi. U qo‘mita plenumida Navro‘zni diniy bayram deb tanqid qilgan. Abdulla Oripov esa bu baxt va bahor bayrami degan. Keyin men „Marhabo Navro‘zi olam“ degan qoshig‘imni aytib chiqqan edim", — deydi Dadaxon Hasan. 1980—1990-yillardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ishtirokchisi bo‘lgan o‘zbek ziyolilaridan biri Hayitboy Abdullayev fikricha, Navro‘zni taqiqlash o‘zbek kommunistlari tashabbusi edi. „Bu faqat O‘zbekiston kompartiyasining qarori bilan taqiqlangan. Chunki qo‘shni Tojikiston va Qozog‘istonda Navro‘z bayram qilinayotgan edi“, — deydi u. Fayzulla Is‘hoqov fikricha esa Navro‘zni cheklash asosan Moskva buyrug‘i bilan amalga oshirilgan. „1986-yili shunday qaror qabul qilingan. Hozir ko‘plar buning uchun Ra‘no Abdullayevani ayblashadi. Lekin aslida bu Moskva tomonidan boshqarilgan. Bu ayolning aybi shuki, u bu tazyiqlarga qarshilik qila olmagan“, — deydi tarixchi olim.

"Ikkinchi Jahon Urushidan keyingi yillarda Navro‘zni „Qozon to‘ldi“ deb ham atashgan. O‘troq turkiylar bu bayramda yetti xil ovqat qilishgan. Uni yangi yil sifatida kutishgan. Keyingi yilgacha qozonimiz to‘lib tursin degan ma‘noda. Ayrim joylarda lola bayrami sifatida nishonlangan", — deydi Hayitboy Abdullayev.

Navro‘z mustaqillikdan keyingi yillarda

1991-yildan keyin Navro‘z umumxalq bayrami darajasiga ko‘tarildi.

Bayram bugun katta tayyorgarlik bilan qarshilanadi. O‘zbekiston prezidenti har yili xalqni Navro‘z bilan rasman tabriklaydi.

Biroq, deydi sharhlovchilar, Navro‘z haligacha ham, tom ma‘noda xalq bayramiga aylanmagan. „Sovet davrida asosan 9-may, 1-may bayram qilinar edi. Milliy bayramlar yo‘q edi. Xalqimiz o‘sha qolipga tushib qolgan. Navro‘z kelganini ham konsert berilganiga qarab sezadi. Chunki sovetlar xalqimizni Navro‘z ruhidan uzib qo‘ygan. Xalqimiz hamon shu izimdan chiqolmayapti“, — deydi hofiz Dadaxon Hasan.

Hayitboy Abdullayev fikricha esa Navro‘z to‘qchilik, to‘kin-sochinlik bayramidir. Xalq moliyaviy yetishmovchilikdan qiynalar ekan, Navro‘zga nisbatan munosabat ham shunga yarasha.

„Hozir bayramni milliy ruhga singdirish uchun harakat bo‘layapti. Masalan, avval kuzatilgan shanbaliklar tiklanayapti. Bu ham ehtimol pokizalikni saqlash uchun foydalidir. Lekin 4-5 ming kishiga osh berish bilan ish bitmaydi. To‘qlik zamon bo‘lsa, har bir kishi Navro‘zni o‘z xonadonida bayram qiladi“, — deydi Hayitboy Abdullayev.

Adabiyotshunos olim Naim Karimov nazarida tarix chig‘iriqlaridan qat‘iy nazar Navro‘z ruhi xalqni tark etmagan.

„Navroz bayrami tiklangach bildikki, u bilan bog‘liq qancha udumlarimiz bor ekan. Qancha qo‘shiqlar, qancha taomlar bor ekan. Hatto birgalikda jo‘r bo‘lib, aytiladigan qo‘shiqlarimiz bor ekan. Qabristonga borish, o‘tganlarni xotirlash kabi udumlari bor ekan“, — deydi u.

Navro‘z, ayrim dindorlar nazarida, islomga xos bayram emas. Shariatga to‘g‘ri kelmaydi, deydi ular.

Bu munozaralar O‘zbekistonda ochiq muhokama qilinmasa-da, ijtimoiy tarixdan xabarbor insonlar yuqoridagi talqinni tamonan rad etadi.

„Qadim zamonlarda Navro‘z ehtimol boshqa bir diniy tarixga ega bo‘lgandir. Lekin vaqt o‘tishi bilan Navro‘z milliy an’anaga aylandi. Navroz kuni quyosh bir kundan ikkinchi kunga o‘tadi. Burj tahlil qilinadi. Islom dunyosi bu haqiqatni tan oladi. Shariatda bunga qarshilik yo‘q. Aksincha hamisha hurmat qilib kelingan. Afsuski, mutaassib, fikr doirasi tor diniy oqimlar nafaqat Navro‘zni, balki boshqa an’analarni ham inkor etishi etishi mumkin“, — deydi islomshunos olimlardan biri.

Adabiyotshunos Naim Karimov deydi Navro‘z xalq hayotida, qolaversa o‘zbek madaniyati va adabiyotida yangilanish timsoli sifatida o‘rin egallab bo‘lgan.

Qadriyatlar

Navro‘zda tinchlik va birdamlik, totuvlik va qo‘shnichilik kabi ulug‘ qadriyatlar ilgari surilgan. Misol uchun, oqsoqollar urishgan oilalarni yarashtirib oilalarni saqlab qolishgan. Tojikistonda munosabatlari buzilgan insonlar oqsoqollarning nasihatlarisiz o‘zlari yarashib ketishgan. Bu madaniy marosimlarda madaniy xilma-xillik va insonparvarlik, sog‘lom turmush tarzi va yashash sharoitini yangilash kabi odatlar avloddan-avlodga o‘tib kelmoqda. Bolalar ham Sofreh, ya’ni tuxumlarini bo‘yash va bezash kabi udumlarda faol qatnashib kelishgan. Bu tuxumlar sovg‘a sifatida bolalarga tarqatilgan. Taqdim qilingan fil’mda ham, bu shuni bildiradiki, tuxumlarni bo‘yash asosan bolalar tomonidan bajariladigan Navro‘z bayramining go‘zal bir udumidir. Sovg‘alar (ko‘pincha yangi kiyimlar) asosan bolalarga beriladi. Bu tantanalar bolalarning xotirasida muhrlanib qoladi va ular ham keyinchalik bu an’analarni davom ettirib, o‘zlaridan keyingi yosh avlodga o‘tkazadilar.

Navro‘z bayramida tabrik xatlarini jo‘natish ham do‘stlikni mustahkamlaydi. Bir-biridan uzoq o‘lkalarda yashovchi insonlar tabrik maktublarini jo‘natib o‘rtalaridagi aloqalarini yaqinlashtiradilar va bu bir-birinikiga mehmonga, sayohatga chiqishga undaydi. Navro‘z bayramlari vaqtida pochta idoralarida ish boshqa kunlarga nisbatan juda ham faollashadi.^[1]

Ayollarning tutgan o‘rni

Ayollar marosimlarni boshqarib, yoshlarga an‘ana va udumlar bo‘yicha bilimlarini o‘rgatib, ushbu madaniy marosimda asosiy rolni o‘ynaydilar.

Ular marosimlarda muhim ahamiyat kasb etib, ayrim hollarda marosimni boshqaradigan: Samanini muqaddas taom sifatida tayyorlaydigan yagona inson bo‘lib qoladilar. Qirg‘iziston Respublikasida ayollar Somoloka taomini Navro‘zdan o‘n to‘rt kun avval tayyorlashga tushadilar, lekin Afg‘onistonda bu taomni Navro‘z arafasida tayyorlashadi. Bundan tashqari, ular „Sabzeh“ (loviyaning yashil novdalari), Sofreh, shirinliklar ni muqaddas belgi sifatida tayyorlaydilar.

Madaniy birdamlik

Bu bayram madaniyatning bir qismi bo‘lib, madaniy birdamlikni kuchaytiradi. Bayram nishonlash chog‘ida hunarmandlar ushbu madaniyatning keng yo‘nalishlarini va mahalliy, milliy va hududiy madaniyatni o‘zida aks ettiruvchi va tarqatuvchi bo‘g‘in hisoblanadi.

Navro‘z marosimi va ayniqsa, mahalliy an‘anaviy marosimlar turli davlatlarda xalq uchun milliy va mahalliy birdamlik kasb etadi. Misol uchun, Navro‘z bayrami kunlari tug‘ilgan ayrim bolalarning ismini Navro‘z yoki unga boshqa ism qo‘shib „Navro‘z+Ali“ (Navro‘zali) deb qo‘yishadi. Bunga isbot sifatida Tehrondagi asoschisi va egasi nomiga qo‘yilgan mashhur „Novrouz Xan Bazar“ bozorini misol qilib keltirish mumkin.

"Navro‘z umumxalq" bayramiga bag'ishlangan savollar va javoblar.

1-savol :Bir yilda kun bilan tunning o‘zaro nisbati bilan bog‘liq to‘rt nuqta bo‘lsa, shuning birinchisi Navro‘zdir. Bu bahorgi e‘tidol, ya‘ni tengkunlikdeyiladi. Diqqat savol: Ushbu to‘rt nuqtaning uchinchisi 21 sentyabr hisoblanadi. Bu kunning o‘ziga xos hususiyati nimada?

Javob: 21 sentyabrga borib yana kun bilan tun tenglashadi. Bu kuzgi e‘tidol deyiladi. Buning Navro‘zdan farqi shundaki, endi har kuni tunning hissasi oshib, kunning ulushi kamayib boraveradi.

2-savol:“Ziynat al-majolis” “Ziynatlar majlisi” antalogiyasidakeltirilishicha, mazkur cholg‘uni Abu Nasr Farobiy ixtiro etgan. Yana shu asarda keltirilishicha, Farobiy Ray shahrida Sohib ibn Abbas qabulida bo‘lganida, vazir sharafiga o‘tkazilgan ziyofatda ushbu cholg‘u asbobida uch qismli kuy ijro etib,

tinglovchilarni ham yigʻlatgan, ham kuldorgan, ham hayajoga solgan ekan.Savol: Yuqorida qaysi cholgʻu asbobi haqida soʻz ketmoqda.

Javob: Gʻijjak

3-savol: U halqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarini oʻzida sinovdan oʻtkazadi. Yaxshilarini oʻz bagʻrida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. U oʻz farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniyqadriyatlarini singdirish bilan ularga boshlangʻich ijtimoiy yoʻnalish beradi.Oʻz farzandlarini katta oqimga –jamiyatga qoʻshish bilan esa u jamiyat yoʻnalish, iqtisodiyoti, madaniyati va maʼrifatini ham belgilashga oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Yuqoridagi soʻzlarda nimaga taʼrif berilmoqda.

Javob: Oila

4 – savol :Toʻmaris davrida baʼzi bir ayollarga taqinchoq taqish taqiqlangan,bilamizki Toʻmaris davrida jang-jadallar koʻp boʻlgan, qanday toifali ayollarga taqinchoq taqish man qilingan?

Javob: Oʻgʻil farzand koʻrmagan ayollarga taqinchoq taqish taqiqlangan, chunki jangchi farzand yetkazib bermagan.

5.“Navroʻz” soʻzining maʼnosi ?-

Javob; - ”(forscha “Yangi kun)

6.Oʻzbek erkaklarida u dasturxon, dastroʻmol, sochiq, hamyon sifatida ham foydalaniladi. Bu nima ? –

Javob; - Belbogʻ (chorsi,qiyiq)

7.2009-yil 30-sentyabda Navroʻz bilan bogʻliq qanday voqea sodir boʻlgan?

Javob; 2009-yil 30-sentyabda Navroʻz UNESCO tarafidan nomoddiy madaniy meros roʻyxatiga kiritilgan,

8.A.Navoiyning qaysi asarida navroʻzning paydo boʻlishi haqida maʼlumot keltirilgan?

Javob:Tarixi mulik ajam asarida

9. Boychechaknitutdilar,

Tutyogʻochgaosdilar.

Qilichbilanchopdilar,

Baxmal bilan yopdilar. Bu qoʻshiqda boychechak muqaddas sanalib, qanday qadimiy marosim haqida soʻz bormoqda?

Javob: Qurbonlik qilish marosimi nazarda tutilgan.

10. Bu marosim ulus hayotida muhim sanalgan va unga maxsus tayyorgarlik ko'rilgan. Dastavval kattalar ijrosida o'tkazilgan bu marosim keyinchalik bolalar folklori ko'rinishini olgan. Zero, unutilgan ko'pgina marosimlarning izlari aynan bolalar folklori tarkibida saqlanib qoladi. Savol bu unutilgan marosim nomini toping.?

Javob; Boychechak marosimi. Boychechak tutgan bolalar uyma-uy yurib, xonadonlardan qishni haydaganlar.

11. Ularda quyosh ramzi bilan bog'liq tasvirlar alohida o'rin tutadi. Chunki, hayotda, tabiat va inson munosabatida quyosh juda muhim rol o'ynagan. fasllar almashinuvi, chiqayotgan va botayotgan quyosh tasviri an'anaviy ramzlarda muhrlanib qolgan. Diqqat savol bu tariflar qanday milliy me'rosimizga tegishli deb o'ylaysiz.?

Javob; So'zana.

12. 1985-86 yillarda Navro'z asosan O'zbekistonda nima sifatida ko'rildi?

Javob; "Xavfli an'ana" sifatida ko'rilgan.

13. 21-mart 21-sentyabr u sanalarni bir-biriga o'xshash bo'lgan jihatni toping?

Javob; Kun bilan tun teng bo'ladi.

14. Navro'z bayrami oldidan o'tkiziladigan ma'rosim.

Javob; Darveshona.

15. Oqshomda barcha idishlar suvga to'ldirib qo'yilgan. Xalq qarashlariga ko'ra, suv to'ldirilgan idishlarga tangrining marhamati bilan qut-baraka to'ladi deb tasavvur qilingan. Bu navro'z kuni oqshomda bo'ladigan marasim nomini ayting?

Javob: «Qozon to'ldi»

16. Navro'z dasturxoniga turli xil taomlardan tashqari tabiat ne'mati bo'lgan etti xil narsadan ham qo'yishgan. Diqqat savol bu etti xil narsa nimaligini toping?

Javob: Navro'z dasturxoniga katiq, sut, pishloq, tuxum, baliq va yonib turgan shamlardan tashqari daraxt shoxidan namuna keltirib qo'yiladi, ular majnuntol, zaytun, behi, anor, bodom, pista, tut, qo'yilgan.)

Foydalanilgan manbalr:

Ism O'zbek udumlari
Muallif **Mahmud Sattor**
Nashriyotchi Cho'lpon, 2007 yil

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanildi.

Do'stlik TAKM M. Raximova.